

Date: 1st April-2026

**YANGI TAHRIRDAGI KONSITUTSIYADA BOLALAR MEHNATIGA OID
NORMALAR VATUSHUNCHALAR .**

Yuldashbayeva Saidaxon Shavkat qizi
Toshkent viloyati yuridik texnikumi talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada yangi tahrirlangan Konsitutsiyadagi aynan mehnat huquqiga oid ayrim normalarning mazmuni va voyaga yetmagan shaxslarning mehnatidan foydalanishga yo'l qoymaslik, tog'risidagi talablarga amal qilmaslik, konsitutsiyaviy normada bolalarning sog'ligi, xavfizligi va hayotiga to'liq aniqliy, ma'naviy, jismoniy rivojlanishiga tahdid solmaydigan ta'lim olish jarayonini buzmaydigan tarzda mehnat qilishga yo'l qo'yilishi.

Kalit so'zlar : Mehnat huquqi, xalqaro mehnat huquqi qonunchiligi, mehnat yoshi, mehnat huquqi buzilish holatlari, bolalar mehnati, voyaga yetmaganlar mehnati, mehnat huquqi, mehnat qilish huquqi, majburiy mehnatni taqiqlash, bola huquqlari, ijtimoiy himoya, mehnat sharoitlari, huquqiy kafolatlar, ekspluatatsiya

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-iyundagi Konsitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvda **inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha amaldagi tizimning samarasini olish maqsadida Konsitutsiyamizda bolalar mehnatiga yo'l qo'ymaslikka alohida e'tibor qaratilgan edi.**

O'zbekiston Respublikasi 2008-yilda Xalqaro mehnat tashkilotining **Bolalar mehnatining og'ir shakillarini taqiqlash va yo'q qilishga doir shoshilinch choralar to'grisidagi Konvensiyani radifikatsiya qilgan.**

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi va Jinoyat kodekslarida voyaga yetmagan shaxslarning mehnatidan foydalanishga yo'l qoymasligi to'g'risida talablarni buzish ya'ni voyaga yetmagan shaxs mehnatidan uning sog'ligiga, xavfsizligiga yoki axloq-odobiga ziyon yetkazish, mumkin bo'lgan ishlarda foydalanish uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik choralari begilangan. Yangi tahrirdagi Konsitutsiyamizning **44-moddasida "Bolalar mehnatining sog'lig'iga, xavfzililiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan uning ta'lim olishiga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan xotlar uzasidan ushbu xolatga nistan taqiq mavjudigi haqida qat'iy norma mutahkamlamoqda.** Paxta dalalari yoki boshqa qishloq xo'jagi ishlarida umuman, boshqa sohalarida ham bolalar mehnatidan foydalanish ayniqsa, ularni jalb qilish idini olish va nga qarshi kurashish bo'yicha tizimli va qat'iy islohotlar natijasida O'zbekistonda bolalarning majburiy menati to'liq barxam topdi. 2 millionga yaqin bolalar majburiy mehnatdan ozod qilindi. Endilikda bu boradagi davlat siyosatini konsitutsiyaviy darajada mustahkamlashga qaratilgan muhim qadamlar tashlanmoqda. Konsitutsiyamizga ilk marotaba kiritilayotgan norma mamlakatimizda ushbu sohada erilishilgan yutuqlarni qat'iy mustahkamlaydi hamda bolalar sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishari uchun muhim xuquqiy kafolat bo'lib xizmat qiladi.



MEHNAT HUQUQI HAQIDA TUSHUNCHA

Mehnat huquqi bilan har bir inson albatta duch keladi. Qayergadir ishga kiradi, qilgan mehnati uchun oylik yoki kunlik miqdorda mablag' oladi, dam olish uchun ta'tilga chiqadi.



O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga ko'ra maktab yoshidagi **15 yoshli** bola ota-onasining (**ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning**) roziligi bilan ishlashi mumkinligi belgilangan. Demak siz qayergadir ishga kirmoqchi bo'lsangiz, **15 yoshdan** ishlashingiz mumkin bo'ladi. Buning uchun dastavval mehnat huquqini yaxshilab o'rganishingiz kerak bo'ladi.



MEHNAT HUQUQI NIMA UCHUN KERAK?

Albatta har bir bola maktabni, kollej, litsey hamda universitetlar-ni bitirib yaxshi joylarda ishlayman deb maqsad qiladi. Kimdir, sudya, advokat, o'qituvchi, shifokor bo'laman deb, ya'na kimdir stomotolog, IT mutaxassi, ko'p tillarni o'rganib tarjimon bo'laman deb niyat qiladi. Maq-sadi va niyati yo'lida tinimsiz o'qib, tirishqoqlik bilan mehnat qiladi.

Istalgan idora yoki tashkilotda ishlashdan oldin eng avvalo, siz mehnat huquqlaringiz bilan tanishib chiqishingiz va ularni yaxshilab bilib olishingiz, bu kelgusida sizning mehnat huquqlaringizning buzi-lishini oldini olishga yordam beradi.

Demak qadri bolalar har birimiz mehnat huquqimizni yaxshilab bilib olishimiz zarur ekan!



Date: 1st April-2026

BOLALAR UCHUN MEHNAT YOSHI

Qonunchiligimizda bolalarni ishga qabul qilish yoshi **16 yosh** etib belgilangan. Lekin bolalar **15 yoshdan** ham ishlash mumkin. Buning uchun qonunchilikda ko'rsatib o'tilgan talablarni bajarish talab etiladi. Ya'ni **15 yoshdan** boshlab ishlashingiz uchun **ota-onangizning (ularni o'rnini bosuvchi shaxsning)** roziligi kerak. Lekin ishingiz **sog'lig'in-giz** hamda **o'qishingizga** yomon ta'sir etmasligi lozim.





MEHNAT HUQUQLARI BUZILSA QAYERGA MUROJAAT QILISH KERAK?

18 yoshgacha bo'lgan bolalar sudda mehnat huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini shaxsan himoya qilish huquqiga ega.

Mehnat huquqlari buzilsa **fuqarolik ishlari bo'yicha sudga** murojaat qilishi lozim.



Bilasizmi, har biringiz mehnat huquqingizni qanchalik yaxshi bilsangiz, shunchalik o'zingizga foyda bo'ladi. Hech kim sizni qonunlarda ta'qiqlagan ishlarga jalb etishga haqli emas.

Shunday ekan, agarda kimdir sizni majburiy mehnatga jalb qilayotgan bo'lsa, unda tegishli organlarga, mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarga xabar berishingiz zarur.

Ular sizning murojaatingizni o'rganib chiqib mutasaddi shaxslarga tegishli choralar ko'radi.

Date: 1st April-2026

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: 100 savolga 100 javob
3. Mehnat huquqi
4. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi
5. Bola huquqlari to‘g‘risidagi qonun
6. Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya
7. Xalqaro mehnat tashkiloti hujjatlari

